

**Пудрат шартномаси**

2022 йил « 04 » 10

Тошкент шаҳри

Кейинги ўринларда “Буюртмачи” деб юритиладиган, Яккасарой тумани Халқ таълими бўлими номидан иш юритувчи Н.К.Хусанбоева бир томондан ва кейинги ўринларда “Пудратчи” деб юритиладиган, «QARSHIPROMTEXSTROY MONTAJ» МЧЖ номидан Устав асосида иш юритувчи директор М.Абдурахмонов иккинчи томондан, мазкур пудрат шартномасини туздилар.

**ШАРТНОМА МАВЗУСИ**

1.1. “Пудратчи” мазкур шартнома шартларига кўра лойиҳада кўзда тутилган, «Текущий ремонт пола спортивного зала школы № 48 Яккасарайского района.»

бўйича ишларини бажариш мажбуриятини олади, “Буюртмачи” эса “Пудратчи” га ишларни бажариш учун объектни лойиҳа хужжатларини топширади, “Пудратчи” томонидан объектнинг лойиҳасига асосан бажарилган ишларни барча ижро хужжатларини тақдим қилгандан кейин қабул қилиб олади ва қолган тўловни амалга оширади.

**I. ШАРТНОМА БЎЙИЧА ИШЛАР ҚИЙМАТИ**

2.1. Мазкур шартнома бўйича Пудратчи томонидан бажариладиган ишлар, тендер комиссиясининг 2022 йил № 9-сон танлов комиссия баённомасига асосан, Яккасарой туманидаги 48-сонли мактаб спорт залини полларини жорий таъмирлаш ишлари объекти бўйича “Пудратчи” томонидан бажариладиган ишларнинг умумий қиймати (кўшилган қиймат солиғи билан) жорий нархларда 220 350 500 (Икки юз йигирма миллион уч юз эллик минг беш юз) сўм қилиб белгиланган.

2.2. Ишлар қиймати узил-кесил ҳисобланади ва кейинчалик қайта кўриб чиқилиши мумкин эмас, қуйидаги ҳоллар бундан мустасно:

-қурилиш қийматини кўпайтиришга енгиб бўлмайдиган куч (форс-мажор) ҳолатлари сабаб бўлганда;

-Норматив ҳуқуқий хужжатларга асосан тегишли ўзгартиришлар киритилганда;

-иккинчи ва кейинги йилларда ўтувчи объект бўлганда;

-кўшимча ишлар бажарилиши зарур бўлганда “Буюртмачи”нинг хати асосида.

2.3. Тегишли санаб ўтилган ўзгаришлар бўйича асослар мавжуд бўлганда, “Буюртмачи” билан “Пудратчи” ўртасидаги шартномага кўшимча битим билан расмийлаштирилади.

**III. ПУДРАТЧИНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ**

3.1. Мазкур шартнома бўйича “Пудратчи” мазкур шартноманинг I бўлимида назарда тутилган ишларни бажариш:

-барча ишларни мазкур шартнома, ишларни бажариш жадвалида назарда тутилган ҳажмда ва муддатларда ўзининг кучлари ва ёки жалб қилинган кучлар билан қатъий лойиҳа бўйича бажариш ҳамда ишни “Буюртмачи” га мазкур шартнома шартларига мувофиқ топшириш;

-“Буюртмачи”ни пудрат шартномалари тузилиши давомида субпудратчилар билан шартномалар тузилиши, шартнома мавзуси, субпудратчининг номи ва манзили тўғрисида хабардор қилиш;

-қурилиш таваккалчиликларини суғурта қилиш;

-қурилиш майдони кўриқланишини таъминлаш;

-мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятларни тўлиқ ҳажмда бажариш мажбуриятини ва жавобгарликни ўз зиммасига олади.

3.2. “Пудратчи” мазкур шартнома бўйича барча ишларнинг 60 фоизидан кам бўлмаган қисмини мажбурий тарзда ўз кучлари билан, қолган қисмини субпудратчилар томонидан зарур тарзда бажарилиши, ҳамда объектнинг фойдаланишга тайёр ҳолда топширилиши учун “Буюртмачи” олдида тўлиқ мулкый жавоб беради.

3.3. Пудратчи куйидагиларни аниқлаган тақдирда дарҳол буюртмачини огоҳлантириши ва ундан кўрсатмалар олгунга қадар ишни тўхтатиб туриши шарт:

буюртмачи берган материал, ускуналар, техник хужжатлар ёки қайта ишлаш (ишлов бериш) учун топширилган ашёнинг яроқсизлиги ёки сифатсизлигини;

буюртмачининг ишни бажариш усули тўғрисидаги кўрсатмаларини бажариш унинг учун ёмон оқибатларга олиб келиши мумкинлигини;

пудратчига боғлиқ бўлмаган, бажарилаётган иш натижаларининг яроқлилиги ёки пишиқлигини хавф остига қўядиган ёхуд ишни белгиланган муддатда ниҳоясига етказиш мумкин бўлмайдиган қилиб қўядиган бошқа ҳолатларни.

#### **IV. БУЮРТМАЧИНING МАЖБУРИЯТЛАРИ**

4.1. “Буюртмачи” мазкур шартномани бажариш учун:

-мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб уч кун муддатда ишларни бажариш учун яроқли бўлган қурилиш майдонини объект қурилиши ва қурилиш тугаллангунгача бўлган даврга далолатнома бўйича “Пудратчи” га бериш;

-ишлар бажарилиши устидан техник назоратни, ҳар ойда 3 мартадан кам бўлмаган ҳолда назорати ва қурилиш назорати органлари томонидан ўтказилишини ва мазкур шартномада қайд этилган “Пудратчи” томонидан қабул қилинган мажбуриятларга риоя этилишини назорат қилиш;

- “Пудратчи”дан тугалланган ишларни лойиха хужжатларида кўрсатилган давлат стандартларига, техник шартларга мувофиқ бўлишини ҳамда уларнинг сифатини тасдиқловчи тегишли сертификатларга, техник паспортларга ёки бошқа таълуқли хужжатларга эга бўлишини, лойиха бўйича тўлиқ ва сифатли бажарилганлиги назорат қилиш;

-“Пудратчи” нинг барча мурожаатларини ўн кун муддатда тегишли ташкилотлар билан кўриб чиқиш ва қарор қабул қилиш;

-молиялаштириш жадвалига биноан “Пудратчи” га бўнак бериш ва ажратилган маблағ доирасида жорий молиялаштиришни амалга ошириш;

-мазкур шартнома имзоланган кундан бошлаб 1 ой давомида “Пудратчи” га ишларни қабул қилиш учун зарур бўлган ижро хужжатлари рўйхатини тақдим этиш;

-мазкур шартномада назарда тутилган мажбуриятларни тўлиқ ҳажмда бажариш мажбуриятини олади;

#### **V. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ МУДДАТЛАРИ**

5.1. Қурилишнинг давом этиш вақти, пудрат шартнома тузилган кундан эътиборан молиялаштириш маблағи доирасида 30 иш кунни ташкил этади.

5.2. Мазкур шартнома бўйича ишлар, ишларни бажариш жадвалига мувофиқ амалга оширилади.

Объектда ишларнинг тугалланиш муддати – 2022 йил 30 Октябр гача.

#### **VI. ТЎЛОВЛАР ВА ҲИСОБ-КИТОБЛАР**

6.1. Буюртмачи Пудратчига шартнома бўйича ишлар умумий қийматининг 30% миқдорида олдиндан тўловни амалга оширади.

6.2. “Буюртмачи” томонидан “Пудратчи” га бўнак бериш ва жорий молиялаштириш

объектдаги ишларни бажариш ва молиялаштириш жадвалларига асосан амалга оширилади.

6.3. Жорий молиялаштириш “Пудратчи” томонидан бажарилган ишлар сифатли бажарилиб, тегишли барча ижро ҳужжатлари билан “Буюртмачи” га топширилиб уларнинг текшириб олинган ҳолда далолатнома расмийлаштирилгандан сўнг, беришган бўлишнинг ҳисобга олинган ҳолда, ишларни бажариш ва молиялаштириш жадвалига асосан объектининг шартномавий жорий қийматининг 95 фоизгача миқдорда амалга оширилади. Қолган 5% миқдордаги тўлов 1 ой муддатда бажарилган ишларда камчилик (дефект) аниқланмаган тақдирда ўтказиб берилади.

6.4. Объектнинг шартномавий жорий қийматнинг қолган қисми Буюртмачи ва Пудратчи ўртасидаги узил-кесил ҳисоб-китоб қурилиш тугаллангандан кейин ва объект қабул комиссияси томонидан белгиланган тартибда қабул қилингандан кейин амалга оширилади:

6.5. Объектда бажарилган қурилиш ишлари бўйича “Пудратчи” корхоналар билан ҳисоб-китоблар Ўзбекистон Республикасида ўрнатилган тартибда ва тўлов турлари воситасида амалга оширилади.

## **VII. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ**

7.1. “Буюртмачи” қурилиш майдонида ўз вакилини - техник назоратчини буйруқ билан тайинлайди, у “Буюртмачи” нинг номидан бажарилаётган ишлар сифати устидан техник назоратни амалга оширади, шунингдек “Пудратчи” томонидан фойдаланиладиган материаллар ва асбоб-ускуналарнинг шартнома шартларига ва иш ҳужжатларига мувофиқлигини текширади.

7.2. Техник назоратчи ишлар бажарилишининг ва шартноманинг бутун даври мобайнида ишларнинг барча турлари билан тўсиксиз танишиш ҳуқуқига эгадир.

7.3. “Пудратчи” техник назоратчини ишлаш учун жой билан таъминлайди. Техник назоратчи “Пудратчи” томонидан ўтказиладиган қурилиш майдонида ишларни амалга ошириш чоғида пайдо бўлувчи масалаларни ҳал қилиш бўйича йиғилишларда мунтазам равишда қатнашади.

7.4. “Пудратчи” ишларни бажариш лойиҳасига ва мазкур шартноманинг V бўлимида кўрсатилган муддатлар билан мувофиқлаштирилган ўз режаси ва жадвалига биноан объектда ишларни бажаришни мустақил равишда ташкил этади.

7.5. “Пудратчи” объектда ишларни олиб бориш қатъий объектнинг лойиҳаси асосида ва тартибини давлат қурилиш назорати органлари билан келишган ҳолда ва унга риоя этилиши учун қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб беради.

7.6. “Буюртмачи” қурилиш майдонини бериш тўғрисидаги далолатнома имзоланган кундан бошлаб уч кун муддатда қурилиш майдонини белгилаш бўйича ишларни бажариш ва объектни аниқлаб олиш учун “Пудратчи” га геодезия нуқталари, уларнинг координатлари ва баландлик белгиларини ва лойиҳа ҳужжатларини тақдим этади.

7.7. “Пудратчи” лойиҳага мувофиқ геодезия нуқталарига, линиялар ва даражаларга нисбатан объектнинг тўғри ва зарур тарзда белгиланиши, шунингдек баландлик белгилари, ўлчамлари ва бўлиш ўқларининг мувофиқлиги тўғри жойлашганлиги учун жавоб беради.

Агар ишларни бажариш жараёнида лойиҳа ва геодезия ишларида хатолар аниқланса, “Пудратчи”, “Буюртмачи” ва лойиҳачи билан келишган ҳолда тегишли тузатишларни киритади.

7.8. “Пудратчи” геодезия ишларида ўрнатиладиган координатлар ва баландликлар, геодезия белгиларининг жойлашиши схемалари ва жадвалларини сақлайди, қурилишда қўлланиладиган қурилиш материаллари асбоб-ускуналар ва бутловчи буюмлар, конструкциялар ва тизимлар сифати лойиҳа ҳужжатларида кўрсатилган спецификацияларга, давлат стандартларига, техник шартларга мувофиқ бўлишини ҳамда уларнинг сифатини тасдиқловчи тегишли сертификатлар, техник паспортлар ёки бошқа ҳужжатларни, лойиҳа бўйича ишларни тўлиқ ва сифатли бажарилган ҳолда қафолат хати билан “Буюртмачи” га тақдим этади ва бунга жавобгар бўлади.

7.9. Алоҳида масъулиятли конструкциялар ва беркитиладиган ишлар тайёр бўлишига қараб, уларни қабул қилиш бошланишидан 2 кун олдин “Пудратчи”, “Буюртмачи” ни ёзма равишда хабардор қилади.

7.10. Қабул қилинадиган конструкциялар ва ишларнинг тайёрлиги “Буюртмачи” ва “Пудратчи” томонидан масъул конструкцияларни оралиқ қабул қилиш далолатномалари ҳамда беркитиладиган ишлар текшируви далолатномалари билан тасдиқланади.

7.11. “Пудратчи” “Буюртмачи” нинг ишларни бажариш дафтарига киритилган ёзма рухсатномасидан сўнггина, кейинги ишларни бажаришга киришади.

7.12. Агар беркитиладиган ишлар “Буюртмачи” нинг тасдиғисиз бажарилган бўлса ёки у бу ҳақда хабардор қилинмаган бўлса, ёки кечикиб хабардор қилинган бўлса, у ҳолда унинг талаби бўйича “Пудратчи” “Буюртмачи” нинг кўрсатмасига мувофиқ беркитиладиган ишларнинг исталган қисмини ўз ҳисобидан очишга, сўнгга эса уни тиклашга мажбурдир.

7.13. Агар “Буюртмачи” “Пудратчи” ва (ёки) унинг субпудратчилари томонидан ишларнинг сифатсиз бажарилганлигини аниқласа, у ҳолда “Пудратчи” ўз кучлари билан ва қурилиш қийматини кўпайтирмасдан ушбу ишларни уларнинг зарур сифатини таъминлаш учун келишилган муддатда қайта бажаришга мажбурдир.

7.14. Ишлар бошланган пайдан бошлаб улар тугаллангунгача “Пудратчи” ишларни бажариш дафтари юритади. Дафтарда бутун ишларнинг бориши, “Буюртмачи” ва “Пудратчи” нинг ўзаро муносабатларида аҳамиятга эга бўлган ҳоллар ва ҳолатлар акс эттирилади.

Агар “Буюртмачи” ишларнинг бориши ва сифатидан ёки “Пудратчи” нинг қайдларидан қониқмаса, у ҳолда ишларни бажариш дафтарида ўз фикрини баён қилади.

“Пудратчи” дафтарда “Буюртмачи” томонидан асосли равишда кўрсатилган камчиликларни кўрсатилган муддатда бартараф этиш чора-тадбирларини кўриш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

Бажариладиган қурилиш объектлари бўйича “Пудратчи” корхоналар билан ҳисоб-китоблар Ўзбекистон Республикасида ўрнатилган тартибда ва тўлов турлари воситасида амалга оширилади.

## **VIII. ЕНГИБ БЎЛМАЙДИГАН КУЧ (ФОРС-МАЖОР) ҲОЛАТЛАРИ**

8.1 Агар ушбу шартнома бўйича мажбуриятлар қисман ёки тўлиқ бажарилмаслиги табиат ҳодисалари ва бошқа енгиб бўлмайдиган куч таъсири натижасида келиб чиқса ва бу ҳолатлар мазкур шартноманинг бажарилишига бевосита таъсир этса, томонлар шартнома шартларини қисман ёки тўлиқ бажара олмаса жавобгарликдан озод этилади. Мазкур шартнома бўйича мажбуриятларни бажариш муддати енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари амал қилган, шунингдек ушбу ҳолатлар юзага келтирган вақтга мутаносиб равишда узайтирилади.

8.2. Агар енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари ёки уларнинг оқибатлари бир ойдан кўп вақтга чўзилса, у ҳолда “Пудратчи” ва “Буюртмачи” ишларни давом эттириш ёки уларни консервация қилиш учун қандай чоралар кўрилишини муҳокама қилади.

## **IX. ҚУРИЛИШИ ТУГАЛЛАНГАН ОБЪЕКТНИ ҚАБУЛ ҚИЛИБ ОЛИШ**

9.1. Қурилиши тугалланган объектни қабул қилиб олиш шартномани имзолаш санасида амалда бўлган белгиланган тартибга мувофиқ мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятлар томонлар тарафидан бажарилгандан кейин, шунингдек қурилиши тугалланган объектларни фойдаланишга қабул қилиб олишнинг белгиланган қоидаларига биноан амалга оширилади.

9.2. Объектлар уларнинг фойдаланишга тайёрлиги тўғрисида “Пудратчи” нинг ёзма билдиришномаси “Буюртмачи” томонидан олинган кундан бошлаб 5 кун мобайнида объектдан фойдаланувчи субъект билан биргаликда қабул қилиб олинади.

9.3. “Пудратчи” қурилиши тугалланган объектни қабул қилиб олиш бошланишидан 5 кун олдин “Буюртмачи”га белгиланган таркибда икки нусхада ижро ҳужжатларини беради. “Пудратчи” “Буюртмачи” га ушбу ҳужжатлар тўплами амалда бажарилган ишларга тўлиқ мос келишини ёзма равишда қафолат хати билан тасдиқлашни лозим.

9.4. Қабул қилиб олинган пайдан бошлаб объект ушбу объектдан доимий фойдаланувчи университетнинг мулкига айланади.

## Х. КАФОЛАТЛАР

### 10.1. “Пудратчи”:

-барча ишлар тўлиқ ҳажмда ва мазкур шартнома шартларида белгиланган муддатларда бажарилишини;

-лойиҳа ҳужжатларига ҳамда қурилиш меъёрлари, қоидалари ва техник шартларига мувофиқ барча ишларни бажариш сифатини;

-ўзи томонидан қурилиш учун қўлланиладиган қурилиш материаллари, асбоб-ускуналар ва бутловчи буюмлар, конструкция ва тизимлар сифатини, уларнинг лойиҳа ҳужжатларида кўрсатилган сертификацияларга, давлат стандартларига, ҳамда техник шартларга мувофиқлигини;

-ишларни қабул қилиш ва объектдан фойдаланишнинг кафолатли даврида аниқланган камчиликлар ва нуқсонларни ўз вақтида бартараф қилишини;

-объектдан фойдаланилганда муҳандислик тизимлари ва ускуналарнинг фойдаланиш қоидаларига мувофиқлигини кафолатлайди;

-“Буюртмачи” томонидан ажратиладиган маблағларни мақсадли сарфланишини таъминлайди.

10.2. Агар объектдан фойдаланишнинг кафолатли даврида аниқланиб, улар бартараф этилгунга қадар фойдаланишни давом эттириш имконини бермайдиган нуқсонлар аниқланса, у ҳолда кафолат муддати, нуқсонларни бартараф этиш даврига узайтирилади. Нуқсонлар “Пудратчи” томонидан унинг ўз ҳисобидан бартараф этилади.

Мавжуд нуқсонлар ва уларни бартараф этиш муддатлари “Пудратчи” ва “Буюртмачи” нинг икки томонлама далолатномасида қайд этилади.

10.3. “Пудратчи” нуқсонлар ва чала ишлар кўрсатилган далолатномани тузишдан имзолашдан ёки бажаришдан бош тортган тақдирда, уларни текшириб чиқиш “қурилиш назорат” ёки эксперт органлари томонидан амалга оширилади, бу томонларнинг ушбу масала бўйича ҳўжалик судига мурожаат қилишини истисно этмайди.

## ХІ. ШАРТНОМАНИ БЕКОР ҚИЛИШ

### 11.1. “Буюртмачи”:

-шартнома кучга киргандан кейин қурилишнинг бошланиши “Буюртмачи”га боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Пудратчи томонидан бир ойдан кўп вақтга кечиктирилганда;

-ишларни тугатишнинг мазкур шартномада белгиланган муддати “Пудратчи” нинг айби билан бир ойдан ортиқ муддатга кўпайган ҳолда, ишларни бажариш жадвалига риоя этилмаганда;

-“Пудратчи” томонидан шартнома шартлари қурилиш меъёрлари ва қоидаларида назарда тутилган ишларнинг сифати пасайишига олиб келадиган даражада бузилганда;

-қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб қилиш ҳуқуқига эга.

### 11.2. “Пудратчи”:

-ишларнинг бажарилиши “Пудратчи”га боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра “Буюртмачи” томонидан бир ойдан ортиқ муддатга тўхтатиб қўйилганда;

-“Буюртмачи” томонидан молиялаштириш шартлари бажарилмаганда;

-қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб қилиш ҳуқуқига эга.

11.3. Шартнома бекор қилинганда “Буюртмачи” ва “Пудратчи” нинг қўшма қарорига кўра тугалланмаган қурилиш бир ой муддатда “Буюртмачи” га берилади, “Буюртмачи” бажарилган ишлар қийматини “Пудратчи” га тўлайди.

11.4. Мазкур шартномани бекор қилишга қарор қилган томон, мазкур бўлим қондасига мувофиқ иккинчи томонга ёзма билдиришнома юборади.

11.5. Шартнома тарафларнинг ҳаракат ёки ҳаракатсизлиги натижасида бекор қилинган тақдирда айбдор томон иккинчи томонга етказилган зарарни, шу жумладан бой берилган фойдани тўлайди.

11.6. Шартноманинг бир томонлама бекор қилинишига йўл қўйилмайди, қонун

хужжатларида ёкин мазкур шартномада назарда тутилган ҳолатлар бўлиши мустақилоқ.

## **XII. ТОМОНЛАРНИНГ МУЛКИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ**

12.1. Томонлардан бири шартнома мажбуриятларини бажармаган ёки зарур даражада бажармаган тақдирда айбдор томони иккинчи томонга етказилган зарарларни тўлайди:

12.2. Шартномага мувофиқ бажарилган ишлар ҳажмини тасдиқлашдан асоссиз равишда бош тортиш учун “Буюртмачи” “Пудратчи” га ўзи тасдиқлашни рад этган ёки бош тортиш сумманинг 0,01 фоизи миқдориди жарима тўлайди.

12.3. “Пудратчи” объектни ўз вақтида ишга тушириш ва ишларни бажариш жадвали бўйича мажбуриятларини бузганлиги учун “Буюртмачи” га муддати ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун мажбуриятларнинг бажарилмаган қисмининг 0,5 фоизи миқдориди пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси объект шартномавий жорий қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги лозим.

“Буюртмачи” томонидан топилган нуқсонлар ва камчиликлар ўз вақтида бартараф этилмагани учун “Пудратчи” “Буюртмачи” га муддати ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун сифатсиз бажарилган ишлар қийматининг 0,5 фоизи миқдориди пеня тўлайди, бунда пенянинг умумий суммаси сифатсиз бажарилган ишлар қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги керак.

12.4. “Пудратчи” томонидан бажарилган ишлар сифатли бажарилиб, тегишли барча ижро ҳужжатлари билан “Буюртмачи” га топширилиб уларни текшириб олинган ҳолда далолатнома расмийлаштирилгандан сўнг, объектнинг шартномавий жорий қийматининг 95 фоизигача миқдори 5 (беш) иш куниди амалга оширилади. Қолган 5% миқдордаги тўлов 1 ой муддатда бажарилган ишларда камчилик (дефект) аниқланмаган ўтказиб берилди. “Буюртмачи” “Пудратчи” га тўлов бўйича муддати ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун 0,4 фоизи миқдориди пеня тўлайди, бунда пенянинг умумий суммаси ишлар қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги керак

Пеня тўлаш “Пудратчи” ни ишларни бажаришнинг ёки хизматлар кўрсатишнинг кечикиши туфайли етказилган зарарларни қоплашдан озод қилмайди.

12.5. Агар бажарилган ишлар сифати белгиланган стандартларга, қурилиш меъёрлари ва қоидаларига, иш ҳужжатларига мувофиқ бўлмаса, у ҳолда “Буюртмачи” объектни қабул қилиш ва унинг учун ҳақ тўлашдан бош тортиши, шунингдек “Пудратчи” дан сифати зарур даражада бўлмаган ишлар қийматининг 30 фоизи миқдориди жарима ундириш ҳуқуқига эга.

12.6. Шартнома бўйича мажбуриятлар бажарилмаганлиги учун мазкур моддада назарда тутилган жазолардан ташқари шартномани бузган томон иккинчи томонга бошқа томон тарафидан қилинган харажатларда, мол-мулкнинг йўқотилиши ёки шикастланишида, шу жумладан бой берилган фойдада ифодаланадиган пеня билан қопланмаган зарарларни қоплайди.

12.7. “Буюртмачи” томонидан объектда бажарилган ишларни молиялаштириш учун ажратилган маблағлар мақсадсиз сарфланган тақдирда, “Пудратчи” мақсадсиз сарфланган маблағни

махсус молиялаштириш ҳисоб рақамига тиклайди ҳамда унинг 20 фоизи миқдориди жарима

12.8. Муддат ўтказиб юборилганлиги ёки мажбуриятларнинг бошқача тарзда зарур даражада бажарилмаганлиги учун пеня тўлаш томонларни ушбу мажбуриятларни бажаришдан озод қилмайди.

## **XIII. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ**

13.1. Ушбу шартномада ёки унга боғлиқ масалалар юзасидан келиб чиқадиган барча низолар энг аввало тарафларнинг келишуви ва талабнома тартиби билан ҳал қилинади.

13.2. Тарафларнинг талабнома тартиби билан ҳал қилиб бўлмайдиган низолар Тошкент туманлараро иқтисодий суди орқали ҳал қилинади.

## **XIV. ЛОҲИДА ШАРТЛАР**

14.1. Мазкур шартнома имзолангандан кейин, мазкур шартномага тегишли бўлган томонлар

ўртасидаги барча олдинги ёзма ва оғзаки битимлар, ёзиқмалар, томонларнинг ўзаро келишувлари ўз кучини йўқотади.

14.2. “Пудратчи” қурилиш объектига ёки унинг алоҳида қисмларига тегишли иш ҳужжатларини “Буюртмачи” нинг ёзма рухсатисиз, субпудратчилардан ташқари, бирор-бир учинчи томонга сотиш ёки бериш ҳуқуқига эга бўлмайди.

14.3. Мазкур шартномага барча ўзгартириш ва қўшимчалар, агар улар ёзма шаклда расмийлаштирилган ва томонлар уларни имзолаган бўлса, ҳақиқий ҳисобланади.

14.4. “Буюртмачи” билан “Пудратчи” ўртасидаги мазкур шартномалан келиб чиқмайдиган янги мажбуриятлар пайдо бўлишига олиб келадиган ҳар қандай ахлалашувни томонлар мазкур шартномага қўшимчалар ёки ўзгартиришлар шаклида ёзма равишда тасдиқлаши керак.

14.5. Агар “Пудратчи” шартнома бўйича ишлар якунлангандан кейин қурилиш майдонида ўзига тегишли мол-мулкни қолдирса, у ҳолда “Буюртмачи” “Пудратчи” қурилиш майдонини озод қилиш санасигача бажарилган ишлар учун унга ҳақ тўлашни кечиктиришга ҳақлидир.

14.6. Мазкур шартномада назарда тутилмаган бошқа барча ҳоллар учун амалдаги қонун ҳужжатлари нормалари қўлланилади.

14.7. Мазкур шартнома бир хил юридик кучга эга бўлган уч нусхада тузилди ва тарафлар томонидан имзоланиб, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Ғазначилигидан рўйхатдан ўтган кундан бошлаб кучга киради ва 2022 йил 31 декабрь кунига қадар амал қилади.

14.8. Тарафлар шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажараётганда Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг талабларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширмайдилар, шу жумладан, пора беришни таклиф қилмайди, пора беришга ваъда бермайди, товламачилик қилмайди, пора сифатида пул тўламайди, бевосита ёки билвосита пора олишга розилик бермайди ёки пора, яъни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ходими ўз хизмат мажбуриятларидан фойдаланган ҳолда пора берган шахснинг манфаатларини кўзлаб муайян ҳаракатларни содир этиши ёки содир этмаслиги шартлиги ёки мумкинлиги учун моддий қимматликларни ёки мулкрий наф олмайди. Тарафлар ушбу ҳаракатларга йўл қўймаслик бўйича чоралар кўрилишига кафолат беради.

## **XV. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ БЎЙИЧА БАНДЛАР**

15.1. Шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажариш доирасида томонлар коррупцияга қарши курашиш қоидаларига, шу жумладан амалдаги қонунчиликка риоя этилишини таъминлайди; уларнинг ходимлари, филиаллари, бенефициарлари ва уларнинг шериклари, шартномани бажариш бўйича контрагентлар пора бериш ёки олиш, тижорат порахўрлик, пора олишда воситачилик қилиш, давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилот ходимига пора беришдан воз кечишларини таъминлаш; ёки моддий ёки номоддий фойда олиш. Томонлар ушбу ҳаракатларнинг олдини олиш бўйича чоралар кўришни кафолатлайди.

15.2. Томонлар коррупцияга қарши кураш қоидалари бузилган ёки асосли шубҳалар юзага келган тақдирда бир-бирларини дарҳол ёзма равишда (антисоррупцион@укс.уз электрон почта орқали) ёки телефон орқали (+9978-140-74-48) хабардор қилиш мажбуриятини оладилар. Томонлар вазиятга ойдинлик киритиш мақсадида ёзма тушунтириш сўрашга ҳақли, мурожаатни қабул қилган Томон еса 10 (ўн) иш куни ичида ўз фикри бўйича баёнот бериши ёки изох бериши мумкин.

15.3. Ушбу модданинг талаблари, шу жумладан, коррупция хавфини белгиланган муддатда бартараф этиш, томонлар томонидан коррупцияга оид вазиятнинг пасайишига олиб келмаган чоралар кўрилмаган тақдирда, бошқа томон ўз фаолиятини тугатиш, шартномани тузиш ёки унинг бажарилишини тўхтатиб туришга ҳақли.

15.4. Ушбу моддада назарда тутилган асослар бўйича шартномани бир томонлама бекор қилишни талаб қилган тарафга йетказилган зарарни қоплаш ушбу шартноманинг 9-қисмида назарда тутилган тартибда амалга оширилади, шу билан бирга ушбу моддада назарда тутилган мажбуриятларни бузган томон шартномани бир томонлама бекор қилиш натижасида етказилган зарарлар учун компенсацияни талаб қилишга ҳақли эмас.

**XV. ТОМОНЛАРНИНГ БАНК РЕКВИЗИТЛАРИ ВА ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ:**

**БУЮРТМАЧИ**

Яккасарой туман халқ таълими бўлими

Тошкент ш. Яккасарой т. Бобур 1-берк 17-уй

Тел: 71 254-85-71

ИНН: 201283694; МФО: 00014

р/с: 100022860262877092100075024

Молия Вазирлиги Ғазначилиги

х/р: 23402000300100001010

ИНН: 201122919

Мудир:



Н.К. Хусанбаева

**“ПУДРАТЧИ”**

**«QARSHIPROMTEXSTROY MONTAJ»**

**МЧЖ**

г.Ташкент Чиланзар р ул Бунёдкор кв-52а  
АИТ "ИПАК ЙУЛИ" банк ЧИЛОНЗОР Ф

р/с 20208000904673369001

МФО 01067; ИНН 300 685 303;

ОКЕД 41202; QQS: 310070051034;

тел. 987773400


директор:



М. Абдурахмонов

*Хуқуқшунос хулосаси: Мен Ушбу №\_сонли шартнома лойиҳасини амалдаги Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, Хўжалик юришувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисидаги қонун ва бошқа қонун ҳужжатлари асосида ҳуқуқий экспертиза қилиб, ҳар иккала ташкилот ҳам давлат рўйхатидан ўтган бўлиб, юридик шахс ҳисобланиб, ташкилот раҳбари шартномани имзолаш ҳуқуқига эга. Шартномада шартнома предмети, баҳоси, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, жавобгарлиги, низоларни ҳал этиш тартиби ҳамда томонларнинг банк реквизитлари тўлиқ кўрсатилган бўлиб, шартнома лойиҳаси қонунчилик ҳужжатларига мос келишини аниқладим. Шунинг учун ушбу шартномани имзоласа бўлади деб ҳисоблайман.*

Хуқуқшунос: \_\_\_\_\_

	<b>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.</b> Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	<b>NILUFAR XUSANBAYEVA KASIMBAYEVNA</b>
	Imzolangan sana	<b>7 okt 2022 18:49</b>
	Hujjat kodi	<b>WZ5306367776</b>
	Hulosa kodi	<b>VH8265413665</b>





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI

YAKKASAROY TUMAN ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

100059, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Sh.Rustaveli ko'chasi, 93-uy

tel: (99871) 253 03 68

### YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

2022-yil 7-oktabr

Toshkent shahri

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi:

“QARSHIPROMTEXSTROY MONTAJ” MCHJ va Yakkasaroy tuman Xalq ta'lim bo'limi o'rtasidagi pudrat shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Umumiy qiymati **220.350.500** so'm bo'lgan shartnoma loyihasi Yakkasaroy tuman Xalq ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 7-oktabrda taqdim etilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



A.Tojiboyev



Яккасарой туман халқ таълим бўлими,  
Комиссия раиси  
Н.К.Хусанбаева  
«04» «10» 2022 й.

**Яккасарой туман халқ таълим бўлими тасарруфидаги 48-сонли мактабни спорт залини полларини жорий таъмирлаш учун 22110012155497-сонли лот бўйича харид қилиш комиссиясининг баённомасига 9-сонли БАЁННОМА**

Тошкент ш.

«04» «10» 2022 й.

“Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ЎРҚ-684-сонли қонунига мувофиқ Яккасарой тумани Халқ таълими бўлими томонидан Ўзбекистон Республикаси Товар хомашё биржасининг “etender.uzex.uz” махсус электрон ахборот порталида «Яккасарой туман халқ таълим бўлими тасарруфидаги 48-сонли мактабни спорт залини полларини жорий таъмирлаш» учун 22110012155497-сонли лот бўйича харид қилиш комиссиясининг баённомаси расмийлаштирилди.

Мазкур баённомага мувофиқ қуйидаги маълумотлар қабул қилинди:

**Бошланғич нарх: 220 350 500 сўм.**

№	Тижорат таклифини тақдим этган корхона ва ташкилот номи	Тижорат таклифи (Нарх қиймати, сўм)	Жами тўпланган балл
1.	ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	250 000 000	90.14206
2.	ООО KSYGROUP	264 981 744	94.24706
3.	ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	220 350 500	100

Юқоридаги маълумотлардан келиб чиқиб, Яккасарой туман халқ таълим бўлими тасарруфидаги 48-сонли мактабни спорт залини полларини жорий таъмирлаш учун (лот рақами 22110012155497) бўйича 2022 йил 04 октябрда расмийлаштирилган харид комиссияси баённомаси расмийлаштирилган вақтдан сўнг икки иш куни ичида “Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ЎРҚ-684-сонли қонунининг 61-моддасига асосан мазкур танлов натижаси бўйича корхона ва ташкилотлар томонидан ҳеч қандай эътирозлар бўлмади ҳамда икки кунлик муҳокамадан сўнг ООО “QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ” ни ғолиб деб топди.

Ушбу танловда эълон қилинган иш ва хизматларни бажариш учун захира ижрочи сифатида ООО “KSYGROUP” белгиланди.

Комиссия аъзоси  
Комиссия аъзоси  
Комиссия аъзоси  
Комиссия аъзоси  
Комиссия аъзоси  
Комиссия аъзоси



Н.К.Хусанбаева  
М.А.Ахунов  
Ж.Б.Абдуллаев  
Д.Г.Набиева  
М.А.Гаибназарова  
Н.З.Мирхаликова  
Д.Ш.Рашидова

**155497 лот юзасидан шаклланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

07.10.2022 11:29

Комиссия раиси:



XUSANBAYEVA NILUFAR KASIMBAYEVNA

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 155497 на приобретение Текущий ремонт пола спортивного зала школы 48 Яккасарайского района г.Ташкента**

Способ проведения электронный

Дата 04.10.2022

Время рассмотрения 03.10.2022 15:59

Закупочная комиссия Яккасарой туман Халк таълими булими МАРКАЗЛАШГАН, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	XUSANBAYEVA NILUFAR KASIMBAYEVNA	мудир	Яккасарой ТХТБ
<b>Секретарь комиссии</b>	NAZAROVA KAMOLA SHIRINBOYEVNA	давлат харидлари ва шартномалари буйича мутахасис	Яккасарой ТХТБ
<b>Член комиссии</b>	RASHIDOVA DILNURA SHOIR QIZI	Ходимлар билан ҳисоб- китоблар бўйича бухгалтер	Яккасарой ТХТБ
<b>Член комиссии</b>	MIRXALIKOVA NILUFAR ZAKRULLAYEVNA	ДХваШБМ	Яккасарой ТХТБ
<b>Член комиссии</b>	GAIBNAZAROVA MEXRINISA AKNAZAROVNA	завхоз	48 мактаб завхози
<b>Член комиссии</b>	NABIYEVA DILFUZA GANJANOVNA	директор	48 мактаб рахбари
<b>Член комиссии</b>	AXUNOV MAMURJAN AXMEDOVICH	Ҳизмат бошл.бош муҳандис	Яккасарой ТХТБ
<b>Член комиссии</b>	ABDULLAYEV JOHONGIR BEGALI UG'LI	Бош мутахассис	Яккасарой ХТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 04.10.2022 года № лота 155497.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту зданий</b>
Подробное описание	Текущий ремонт пола спортивного зала школы
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	265 000 000.00
Стартовая сумма	265 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Soliqlar va yeg'malarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Тип: Текстовое значение

Описание: Soliq organlarining elektron davlat xizmatlarip ortaldan olingan ERI bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma takliflarni qabul qilish davrida chop etilgani tag'dim etilishi lozim, ishtirokchi tomoidan ma'lumotnoma taqdim etilmasligi yoki mazkur talab asosida taqdim etilmasligi minimal ball bilan baxolanadi. Muddati utgan qarzdorligi mavjud yoki ma'lumotnomani notug'ri taqdim etgan ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	5	5	4	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	5	Илова юкланди	5	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	5	ДСИ дан тасдикланган маълумотлар бириктирилди	5	Экспертная		

Критерий №2 Shartnomani bajarish uchun zarur moliyaviy resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot.

Тип: Текстовое значение

Описание: Bank kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi 2021-2022 yillar hisob raqamida aylanma mablag'lari miqdori va takliflarni qabul qilish davrida hisob raqamida mavjud mablag'lar to'g'risida Bank ma'lumotnomasi ilova qilinishi lozim. Bajarilgan ishlar qiymatidan ortiq mabla'o'iga ega bo'lgan ishtirokchilarga baholashda ustunlik beriladi. Ma'lumot taqdim etmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10	10	8	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	илова килинди	10	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	Банк маълумотлари бириктирилди	10	Экспертная		

Критерий №3 Shartnomani bajarish uchun zarur kadrlar resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Yagona milliy mehnat tizimi bazasidan olingan 5 nafardan kam bo'lmagan qurilish-mantaj va ta'mirlash yunalishdagi mutaxassislar va 10 nafardan kam bo'lmagan ishchilar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etishi lozim (elektron mehnat daftarchasi nusxasi va boshqa xujjatlar ishtirokchi mazkur talab asosida malumot taqdim etilmasligi minimal ball bilan baxolanadi. Ma'lumot taqdim etilmagan ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	5	5	4	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	5	илова	5	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	5	Мехнат вазирлиги сайтидан олинган маълумотлар бириктирилди	5	Экспертная		

Критерий №4 Byudjetga to'langan soliqlar va yeg'imlar to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchi tomonidan 2021-2022 yillarda bajargan ishlari soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portalidan olingan ikki tomonlama ERI bilan tasdiqlangan barcha hisob varoq-fakturalari nusxasi elektron shaklda davlat byudjetiga hisoblangan hamda to'langan daromad solig'i ijtimoiy soliq, foyda solig't QQS va boshqa soliqlar va yeg'imlarning jami summasi bo'yicha solishtirma dalolatnomalar nusxasi ERI bilan tasdiqlangan shaklda ishtirokchi tomonidan ma'lumot taqdim etilmasligi yoki mazkur talab asosida taqdim etilmasligi minimal ball bilan baholanadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10	10	9	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	илова килинди	10	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	Бюджетга туланган соликлар акт сверкалар бириктирилди	10	Экспертная		

Критерий №5 O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligining qurilish- pudrat tashkilotlari elektron reytingidagi darajasi to'g'risida ma'lumot.

Тип: Текстовое значение

Описание: Takliflarni berish davrida qurilish - pudrat tashkilotlari elektron reytingidagi darajasi to'g'risida ma'lumotnoma tashkilotning rasmiy blankasida davlat tilida tasdiqlangan holda taqdim etilish lrozim.(Ishonchlilik toifasi SS darajasidan past bo'lmagan ishtirokchilariga ustunlik beriladi) ishtirokchi tomonidan ma'lumot taqdim etilmasligi yoki mazkur ta'lab asosida taqdim etilmasligi minimal ball bilan baholanadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10	10	9	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	Илова килинди	9	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	Рейтинг бириктирилди	10	Экспертная		

Критерий №6 Bajirilgan ishlar va tajribasi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: 2021-2022 йил мобайнида қурилиш таъмирлаш соҳасида бажарилган ишлари рўйхати, мазкур ишлар бўйича имзоланган шартномалар, топшириш - қабул қилиш далолатномалари нусхаси электрон шаклда тақдим этилиши лозим. Мазкур элонда кўрсатилган ишлар билан бир хил турдаги ишларни тузилган шартнома шартларига

асосан бажарган иштирокчиларга баҳолашдан устунлик берилади . Иштирокчи томонидан маълумот тақдим этилмаслиги ёки мазкур таълаб асосида тақдим этилмаслиги минимал балл билан баҳоланади.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	20		18	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	20	илова килинди	20	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	20	Иш тажрибаси буйича батафсил барча хужжатлар бириктирилди	20	Экспертная		

Критерий №7 Kafolat xati.

Тип: Текстовое значение

Описание: O'ziga nisbattan joriy etilgan bankrotlik tartib taomillarining mavjud emasligi , insofsiz ijrochilarning yagona reestrída qayt etilmaganligi , shartnoma tuzish uchun qonuniy xuquqqa egaligi to'g'risidadavlat tilida tashkelotning rasmiy blankasida tasdiqlangan holda taqdim etilishi lozim. Ishtirokchiningi kafolat xatini taqdim etmasligi yoki ta'lablar asosida to'liq taqdim etmasligi minimal ball bilan baholanadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	5		5	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	5	Илова килинди	5	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	5	Банкротлик холатида эмаслиги тугрисида кафолат хати бириктирилди	5	Экспертная		

Критерий №8 Tanlash ishtirokchisi tonmonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l quymaslik bo'yicha ariza .

Тип: Текстовое значение

Описание: Tashkilotning rasmiy blankasida davlat tiliga tasdiqlangan holda korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha ariza taqdim etishi shart. Ariza taqdim etmagan yoki korrupsiya ko'rinishiga yo'l qo'yimaslik ma'nosini anglatmaydigan boshqa ariza taqdim etgan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10		10	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	Илова килинди	10	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	Коррупцияга йул куймаслик буйича ариза	10	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		бириктирилди				

Критерий №9 Shartnomani bajarish uchun zarur moddiy -texnik resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Tashkilotning rasmiy blankasida davlat tilida tasdiqlangan holda Ba'arada bo'lgan ishlab chiqarilgan yili 20 yildan oshmagan texnikalar ro'yxati , foto suratlari , avtotransport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoxnomalari ilova qilinishi lozim. Ijaraga olingan texnikalarning belgilangan tartibda imzolangan shartnomalari ilova qilinadi ishtirokchi tomonidan ma'lumot taqdim qilinmaganligi yoki mazkur ta'lab asosida taqdim etilmasligi minimal ball bilan baholanadi.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	5	5	4	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	5	Илова юкланди	5	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	5	Зарурий асбоб ускуналар ва техникалар хужжатлари бириктирилди	5	Экспертная		

Критерий №10 Tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Tadbirkorlik subekti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvoxnoma nusxasi elektron shaklda ( davlat ru'yxatidan o'tganiga 2 yildan kam bo'lmagan ishtirokchilarga ustunlik beriladi) bank rekvizitlari , yuridik va pochta manzili , tasischi va benefitslar to'g'risida davlat tilida tashkelotning rasmiy bilankasida tasdiqlangan ma'lumotlar ( tasischi va benefitsianing STIR , pasport yoki ID -karta nusxasi elektron shaklda telefon raqami ). Mazkur ma'lumotlar yoki ma'lumotga ilova to'liq taqdim etmasligi yoki noto'g'ri taqdim etganligi aniqlansa minimal ball bilan baholanadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10	10	10	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	Илова юкланди	10	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	Умумий маълумотлар бириктирилди	10	Экспертная		

Критерий №11 O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RBQ 684-son qonunining 37- moddasiga assan ishtirokchilarga quyidagi qushimcha talablar.

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchilar tomonidan kiritiladigantaklif tanlash xujjatidagitalablarga to'liq mos kelishishart.Qo'shimcha talablarni to'liq bajarish bo'yicha kafolat xati ilova qilgan ishtirokchilargabaxolashda ustunlik beriladi.



Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	10	10	10	Экспертная		
ООО KSY-GROUP	10	Илова юкланди	10	Экспертная		
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	10	684 буйича кафолат хати бириктирилди	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	265 000 000.00	250 000 000.00 UZS	250 000 000.00	00.00	250 000 000.00	26.09.2022 16:06:31	26.44206
ООО KSY-GROUP	265 000 000.00	264 981 744.00 UZS	264 981 744.00	00.00	264 981 744.00	30.09.2022 16:37:57	24.94706
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	265 000 000.00	220 350 500.00 UZS	220 350 500.00	00.00	220 350 500.00	03.10.2022 09:32:24	30

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО TASH ASPHALT BETON INVEST	63.7	26.44206	90.14206
ООО KSY-GROUP	69.3	24.94706	94.24706
ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ	70	30	100

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 155497 от 04.10.2022 года на приобретение Текущий ремонт пола спортивного зала школы 48 Яккасарайского района г.Ташкента определила победителем:

ООО QARSHI PROMTEXSTROY MANTAJ  
300685303

и резервный исполнитель: ООО KSY-GROUP (306490337)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	XUSANBAYEVA NILUFAR KASIMBAYEVNA	Согласен	
Член комиссии	RASHIDOVA DILNURA SHOIR QIZI	Согласен	
Член комиссии	MIRXALIKOVA NILUFAR	Согласен	

	ZAKRULLAYEVNA		
Член комиссии	GAIBNAZAROVA MEXRINISA AKNAZAROVNA	Согласен	
Член комиссии	NABIYEVA DILFUZA GANIJANOVNA	Согласен	
Член комиссии	AXUNOV MAMURJAN AXMEDOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП